

BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI LOYIHALARINI RIVOJLANTIRISHNING OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Qodirov Jasurbek Abubakir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bosh mutaxassisi – O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi

Annotatsiya: *O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosati darajasida muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Shu maqsadda so'nggi yillarda qator innovatsion va intensiv qishloq xo'jaligi loyihalari amalga oshirildi. Ushbu loyihalarning asosiy maqsadi aholini uzluksiz, arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ichki bozor barqarorligini saqlash hamda eksport salohiyatini oshirishdan iborat.*

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy qishloq xo'jaligi loyihalari haqida quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

“Oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo'jaligi” (FSA) dasturini amalga oshirish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmini oshirish, logistika va saqlash tizimini rivojlantirish maqsad qilingan. Loyihani 2021-2030-yillarda amalga oshirish maqsad qilingan. Loyiha doirasida 2024-yilda 1,3 mln tonna sabzavot va mevalar zaxirasi yaratildi va 10 tadan ortiq agrologistika markazlari qurildi. 1000 dan ortiq kichik fermerlar ushbu dastur doirasida kreditlar bilan qo'llab-quvvatlandi.

Intensiv bog'dorchilik va tokchilikni rivojlantirish bo'yicha Samarqand, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo, Andijon viloyatlarida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Loyihalar doirasida yangicha yaratilayotgan yuqori hosilli, iqlimga mos meva navlari ekildi. Zamonaviy tomchilab sug'orish tizimlari joriy etildi. 1 gektardan olinadigan daromad 2-3 barobarga oshdi. Eksportbop mahsulotlar yetishtirila boshlandi.

“Smart Agriculture” – raqamli qishloq xo'jaligi platformasi loyihasini amalga oshirishdan maqsad qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali yetishtirish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Hozirda yer maydonlarining sog'ligi va unumdorligini monitoring qilish, meteodasturlar asosida sug'orish va o'g'itlash to'g'risida tavsiyalar berish orqali 2024-yilga qadar 800 dan ortiq fermer raqamli hisobot tizimiga o'tdi, yalpi hosilning 10-15% gacha oshishiga erishildi.

O'g'it va kimyoviy moddalardan oqilona foydalanish loyihalari ekinlarga aniq miqdorda va maqsadli o'g'it berish orqali oziq-ovqat sifati va hosildorligini oshirishga xizmat qilmoqda. dronlar orqali defoliantlar va o'g'itlar sepish, tuproq tahlili asosida uskunalar yordamida o'g'it miqdorini aniqlash natijasida 1 gektarda o'rtacha o'g'it sarfi 30-40% kamaydi, sifatli mahsulot yetishtirish orqali ichki bozorda narx barqarorligi ta'minlandi.

Аннотация: *Обеспечение продовольственной безопасности в Узбекистане является важным приоритетом государственной политики. В последние*

годы в этом направлении реализовано множество инновационных и интенсивных сельскохозяйственных проектов. Основная цель этих проектов заключается в обеспечении населения бесперебойным, доступным и качественным продовольствием, поддержании стабильности внутреннего рынка и повышении экспортного потенциала.

Ниже кратко рассмотрены основные сельскохозяйственные проекты, реализуемые в Узбекистане.

Программа «Продовольственная безопасность и сельское хозяйство» (FSA) направлена на увеличение объемов производства продовольственной продукции, развитие систем логистики и хранения. Реализация программы запланирована на 2021–2030 годы. В рамках программы в 2024 году создан резерв овощей и фруктов в объеме 1,3 млн тонн, построено более 10 агрологистических центров. Более 1000 мелких фермеров получили поддержку в виде кредитов в рамках этой программы.

В Самаркандской, Наманганской, Ферганской, Сурхандарьинской и Андижанской областях реализуются проекты по развитию интенсивного садоводства и виноградарства. В рамках этих проектов высажены высокоурожайные, адаптированные к климату сорта фруктов. Внедрены современные системы капельного орошения. Доход с 1 гектара увеличился в 2–3 раза. Началось производство экспортно-ориентированной продукции.

Проект платформы «Умное сельское хозяйство» (Smart Agriculture) направлен на повышение эффективности производства за счет внедрения цифровых технологий в сельское хозяйство.

В настоящее время мониторинг состояния и плодородия земель, рекомендации по поливу и внесению удобрений на основе метеоданных позволили к 2024 году перевести более 800 фермеров на цифровую систему отчетности, что привело к увеличению общего урожая на 10–15%.

Проекты по рациональному использованию удобрений и химических веществ способствуют повышению качества и урожайности продукции за счет точного и целевого внесения удобрений. Использование дронов для распыления дефолиантов и удобрений, а также определение количества удобрений на основе анализа почвы позволили сократить средний расход удобрений на 1 гектаре на 30–40%, а производство качественной продукции обеспечило стабильность цен на внутреннем рынке.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, инновационные сельскохозяйственные проекты, интенсивное садоводство, цифровое сельское хозяйство, рациональное использование удобрений.

Abstract: Ensuring food security in Uzbekistan is a key priority at the state policy level. In recent years, several innovative and intensive agricultural projects have been implemented to achieve this goal. The primary objectives of these projects are to provide the

population with uninterrupted, affordable, and high-quality food products, maintain the stability of the domestic market, and enhance export potential.

Below is a brief overview of the main agricultural projects being implemented in Uzbekistan.

The “Food Security and Agriculture” (FSA) program aims to increase the production volume of food products and develop logistics and storage systems. The program is set to be implemented from 2021 to 2030. Within its framework, in 2024, a reserve of 1.3 million tons of vegetables and fruits was created, and more than 10 agrologistics centers were established. Over 1,000 small-scale farmers received support through loans under this program.

Projects to develop intensive horticulture and viticulture are being implemented in Samarkand, Namangan, Fergana, Surkhandarya, and Andijan regions. These projects involve the planting of high-yield, climate-adapted fruit varieties and the introduction of modern drip irrigation systems. Income per hectare has increased by 2–3 times, and export-oriented products are now being produced.

The “Smart Agriculture” digital platform project aims to enhance production efficiency by introducing digital technologies in agriculture.

Currently, monitoring land health and fertility, along with recommendations for irrigation and fertilization based on weather data, has enabled over 800 farmers to transition to a digital reporting system by 2024, resulting in a 10–15% increase in total yield.

Projects focused on the rational use of fertilizers and chemicals contribute to improving food quality and yield through precise and targeted fertilizer application. The use of drones for spraying defoliants and fertilizers, as well as determining fertilizer quantities based on soil analysis, has reduced average fertilizer consumption per hectare by 30–40%, while the production of high-quality products has ensured price stability in the domestic market.

Keywords: *food security, innovative agricultural projects, intensive horticulture, digital agriculture, rational use of fertilizers.*

KIRISH

Har qanday davlat uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash strategik ahamiyatga ega bo'lib, milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va aholi salomatligini ta'minlashning asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Bu borada barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarini rivojlantirish — muammolarga javobgar va uzoq muddatli yechim sanaladi. Xususan, O'zbekistonda global iqlim o'zgarishi, aholi soni o'sishi, sug'oriladigan yerlar miqdorining cheklanganligi hamda suv resurslarining samarali boshqarilishi barqaror qishloq xo'jaligiga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligining hozirgi holati

2025 yilning birinchi yarmida O'zbekiston Respublikasida YaIM o'sish sur'ati

5,6% ni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi esa YaIMning 25% ga yaqinini tashkil etib, iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri bo'lib qolmoqda. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 380 trln so'mdan oshgan, bu esa o'tgan yilga nisbatan 7,2% o'sishni ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligida hozirgi kunda 5,4 mln nafarga yaqin aholi band bo'lib, bu umumiy ishchi kuchining 26% ni tashkil etadi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki talab yildan-yilga o'sib bormoqda, 2030 yilga kelib aholi sonining 40 million nafarga yetishi kutilmoqda. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida jiddiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarining mazmuni va afzalliklari

Barqaror qishloq xo'jaligi loyiholari — ekologik barqaror, iqtisodiy samarali va ijtimoiy inklyuziv yondashuvlarga asoslangan, uzoq muddatli strategik rejalarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

Tomchilatib sug'orish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish

Siderat ekinlar va agrokimyoviy tanlab oziqlantirish orqali tuproq unumdorligini oshirish

Agrochakana tarmoqlar (lokal brendlar, kooperativlar) orqali ichki bozorda mahsulot aylanmasini kuchaytirish

Qishloq infratuzilmasi rivoji: muzlatgichlar, logistika, bozorga chiqish imkoniyatlari

Agrota'lim va innovatsiya: fermerlarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash

Oziq-ovqat xavfsizligidagi dolzarb muammolar

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solayotgan asosiy omillar:

Iqlim o'zgarishi: suv resurslarining kamayishi va issiqlashish sababli hosildorlik pasaymoqda.

Importga qaramlik: bug'doy, sheker, o'simlik yog'i va boshqa asosiy mahsulotlarning ayrim qismlari hali ham tashqi bozorlardan olib kelinadi.

Mahsulot yo'qotishlari: hosil yig'ish, saqlash va yetkazishdagi yo'qotishlar 15–20% ni tashkil etishi mumkin.

Moddiy-texnik ta'minot muammolari: kichik fermer xo'jaliklari uchun agrotexnika, moliya va zamonaviy uskunalarga yetarli kirish imkoni mavjud emas.

Barqaror loyihalarining amaliy natijalari

So'nggi yillarda davlat tomonidan bir qator islohotlar amalga oshirildi:

2023–2025 yillar uchun “Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash dasturi” qabul qilindi.

2024 yilda 20 ming gektardan ziyod maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy qilindi.

Agrokimyoviy xizmatlar markazlari tashkil etildi.

Xususiy sektor ishtirokida agrologistika markazlari soni 40 taga yetkazildi.

Ayrim pilot loyihalar, jumladan, Qashqadaryo, Sirdaryo va Jizzax

viloyatlaridagi fermer kooperativlari mahsulot yetishtirish va bozorga chiqishda samarali ish olib bormoqda.

Xulosa

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash — milliy ustuvor vazifa hisoblanadi. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Barqaror qishloq xo'jaligi loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash (subsidiyalar, imtiyozli kreditlar);

Agrar ta'lim va tadqiqot muassasalarini kuchaytirish, fermerlar uchun malaka oshirish kurslarini ko'paytirish;

Agrar statistikani raqamlashtirish va monitoringni takomillashtirish;

Import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

Xususiy sektor va davlat sherikligini kengaytirish — agrar klasterlar va kooperatsiyani rag'batlantirish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://president.uz>

2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. (2024). Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha Milliy dastur (2023–2030-yillar). Toshkent.

3. Alimov A. A., & Xolbekov M. M. (2022). Agrotexnologiyalar va raqamli qishloq xo'jaligi. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.

4. Toshov B. R., & Karimov O. B. (2023). Qishloq xo'jaligida raqamli innovatsiyalar va intensiv texnologiyalar. // "Agrosanoat" ilmiy-amaliy jurnali, №2, 45–52-betlar.

5. FAO (2022). Digital Agriculture and Smart Irrigation Solutions in Central Asia. Food and Agriculture Organization of the United Nations. <https://www.fao.org>

6. Sodiqov, N. R. (2023). Barqaror qishloq xo'jaligi rivojida zamonaviy agroinnovatsiyalar. // O'zbekiston agrar fani xabarnomasi, №1(75), 60–68-betlar.

7. Jahon banki (2023). Innovatsion qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi loyihalarini bo'yicha hisobot. Toshkent: Jahon banki O'zbekiston vakolatxonasi.

8. Karimova D. R. (2024). Intensiv dehqonchilik va iqlimga mos agrotexnika uslublari. // Ilm va taraqqiyot yo'lida, №4, 30–35-betlar.